

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Exploring the flexibility of adjective order in english: cognitive, pragmatic, and stylistic perspectives.....	873
J.G'.Numonova	
The role of podcasts and audiobooks in language education.....	877
J.G'.Numonova	
The influence of technological advancements on language assessment methods.....	881
O.Z.Dadajonov	
XX asr O'zbek va Nemis dramasida davr va qahramon talqini.....	885
S.A.Yusupova	
The evolution of politeness: a historical analysis of English novels.....	890
N.M.Merganova, N.A.Orifjonova	
Og'zaki nutqning o'ziga hos xususiyatlari.....	894
G.A.To'lanboyeva	
Muloqot va uning xususiyatlari.....	898
S.A.Xaqnazarova	
Abdulla sher ijodida tiplar an'anasi.....	901
N.M.Merganova	
Chet tilda og'zaki nutqni rivojlantirishning yo'llari.....	905
C.X.Azimova	
Категории «Вежливости» в речевых актах высказывания «Отказов», «Отрицаний» и «Удивлений» в русской и американской культурах.....	908
N.A.Komilova	
The representation of gender in English idiomatic expressions.....	911
Y.A.Nasirdinova	
Fransuz navoiyshunosligining global ahamiyati.....	915
Y.A.Nasirdinova	
Aleksandr Papas Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asari haqida: tasavvufiy yondashuv va tildagi maxfiy kodlar.....	919
S.To'lanov	
Turistik diskursning matnda ifodalanishi.....	923
S.To'lanov	
Turizm va reklama diskurslari: funksional va pragmatik yondashuv.....	927
Y.U.Abdurazzakov	
Zamonaviy sotsiolingvistik tadqiqotlar sharhi.....	931
I.T.Dehqonov, T.S.Mo'minova	
Fransuz tili darslarida maqol va matallar bilan ishlash usullari.....	934
D.S.Usmonova, Z.A.Anvarjonova	
Challenges in translating Uzbek literature to English.....	938
D.S.Usmonova, N.R.Rajabova	
Using ai in the field of studying english as a second foreign language.....	942
Sh.M.Yusufjonova	
Tarjima lug'atlarida milliy – madaniy xususiyatlar masalasi.....	946
S.A.Xaqnazarova	
Abdulla she'r ijodida g'oyaviy an'ana.....	949
N.A.Nizomova	
Makon yasovchi affikslarning o'zbek va ingliz tillardagi tarjimalari.....	953
G.Astonova, M.M.Kaharova	
O'zbekiston va Germaniyada ta'limni tashkil etishga oid leksik birliklar tavsifi.....	957
G.Astonova Oliy ta'lim tizimiga oid leksik birliklarning ifodalanishi.....	961
N.A.Nizomova	
Makon va zamon tushunchalar o'rtasidagi bog'liklar masalasi.....	966
S.I.Quziyev	
Turizm maqsadlari uchun ingliz tilini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish.....	970
Z.M.Yigitaliyeva	
Mualliflashtirish kategoriyasining matn doirasida o'rganilganligi.....	975
Z.M.Yigitaliyeva	
About the term of persuasion.....	979



UO'K: 8-1+7. 047.1/2

ABDULLA SHER IJODIDA TIPLAR AN'ANASI

ТРАДИЦИЯ ТИПОВ В ТВОРЧЕСТВЕ АБДУЛЛЫ ШЕРА

TRADITION OF TYPES IN THE WORK OF ABDULLAH SHER

Хақназарова Сайёра Абдурахмоновна 
Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Insonshunoslik, obrazlilik, to'qimaning muhimligi, tasvirning tipiklashganligi va so'zning alohida roli badiiy adabiyot spetsifikasining juda muhim momentlaridir. Ijodkor yaratadigan obraz oddiy in'ikoslardan farqli o'laroq, voqelikni badiiy tarzda hissiy aks ettiradi. Hayot materialini tipiklashtirib induvidlashtira bilish badiiy obraz yaratishning eng asosiy shartidir. Badiiy obrazda biz ijtimoiy tip yoki voqea-hodisalarning umumiy olinadigan xususiyatiga emas, balki ularning konkret bir vakili, individual ko'rinishi uchun xarakterli bo'lgan xususiyatiga duch kelamiz. Obraz asarda tutgan o'rni va vazifasiga ko'ra, adabiyotda personaj, bosh obraz, ikkinchi darajali obraz, xarakter, tip kabi terminlar bilan ifodalanadi. Badiiy obrazga xos birinchi xususiyat uning jonli, aniqligi, o'ziga xos belgilarga boyligi bo'lib, bu xususiyat san'at va adabiyotning kishilarga hissiy ta'siri qudratini belgilaydi. Obrazning ikkinchi o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u o'zida ayni holda aniq, takrorlanmas, shu bilan birga, umumiy, tipik belgilarni mujassamlashtiradi.

Аннотация

Антропология, образность, важность вымысла, типичность изображения и особая роль слова являются очень важными аспектами специфики художественной литературы. Образ, создаваемый творцом, в отличие от простых отражений, эмоционально отображает реальность в художественной форме. Способность типизировать и индивидуализировать жизненный материал является основным условием создания художественного образа. В художественном образе мы сталкиваемся не с общими характеристиками социальных типов или событий, а с конкретными особенностями, характерными для их конкретного представителя, их индивидуального облика. В зависимости от роли и функции образа в произведении он выражается в литературе такими терминами, как персонаж, главный образ, второстепенный образ, характер, тип. Первой особенностью художественного образа является его живость, ясность и богатство отличительных черты.

Abstract

Anthropology, imagery, the importance of invention, the typicality of depiction, and the distinctive role of language are very important aspects of the specificity of literary art. Unlike simple reflections, the image created by the artist reflects reality in an artistic and emotional manner. The ability to typify and individualize life material is the most essential condition for creating an artistic image. In an artistic image, we encounter not the general characteristics of social types or events, but rather the specific characteristics that are distinctive of their concrete representative, their individual appearance. Depending on the role and function of the image in the work, it is expressed in literature with terms such as character, main image, secondary image, persona, and type. The first characteristic of an artistic image is its vividness, clarity, and richness in distinctive features, which determine the emotional impact of art and literature on people. The second distinctive feature of the image is that it embodies both specific, unique, and at the same time, general, typical traits.

Kalit so'zlar: Insonshunoslik, obrazlilik, to'qima, tasvir, tipiklashganlik, so'z, badiiy adabiyot, ijodkor, voqelik, hissiy, tipiklashtirish, induvidlashtirish, obraz, personaj, xarakter

Ключевые слова: Антропология, образность, вымысел, изображение, типичность, слово, художественная литература, реальность, эмоциональный, типизация, индивидуализация, образ, персонаж, характер

Key words: Anthropology, imagery, invention, depiction, typicality, word, literary art, creator, reality, emotional, typification, individualization, image, character, persona

KIRISH

An'ananing navbatdagi turi - tiplar an'anasi bo'lib, bu an'ana ijodkor tomonidan yaratilgan qahramonlar majmuidan iborat. Tiplar an'anasi umumiylikka va alohidalikka asoslanadi. Aynan shu nazariy muammoni ijodkor linkasi misolida tahlil qilamiz. Shoir she'riyatida mumtoz adabiyotimiz

namoyondalari va jahon klassiklari ijodida bo'lganidek, inson qalbi tasvirini ifodalashga asosiy e'tiborini qaratgani uslubining ustuvor jihati hisoblanadi. Poetik uslubning bu ko'rinishi ijodining har qadamida ko'zga tashlanadi. Undagi she'riy mahorat inson obrazining, uning ichki va tashqi borlig'ini atroflicha chuqur, badiiy gavdalantira bilishida namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbek adabiyotshunosligida Abdulla Sher ijodi to'g'risida Asqad Muxtor, S. Mirvaliyev, Safo Ochil, Rahim Azim, O. Sharafiddinov, V. Zohidov, O. Abdullayev, U. Normatov, B. Nazarov, G. Salomov, N. Komilov, T. Jo'rayev, Q. Yo'ldoshev kabi adabiyotshunoslar o'z fikrlarini bildirganlar, shoir asarlariga so'zboshi yozib, asarlarini tahlil qilganlar. Humoyun Akbar, Aziz Said, Salim Ashur, L. Muhammadjonova, Sh. Rizayev, B. Husanov, N. Toshmatov, Q. Yo'ldoshev kabi jurnalist, ijodkor hamda tadqiqotchilar shoir ijodi to'g'risida, asarlaridagi mavzu va g'oyalar xususida bir qancha ko'rsatuv va eshittirishlar tayyorlaganlar.

Abdulla Sher lirikada xarakter yaratishda o'ziga xos usul hamda vositalardan o'rinni foydalanadi. Bu esa, yangicha qarashlarni, yangicha fikrlarni shakllantiradi. U yaratgan lirik obrazlarning xarakter chizgilari she'riyat muxlislarining ongi va shuuriga oson yetib boradi va tez esda qoladi. Xususan, she'riyatda keng tarqalgan badiiy san'atning ohorli jihatlarini topib qo'llash, fikr-mushohada hamda kechinmalarni "tesha tegmagan" iboralar orqali lirik bayon etish shoir uslubiga xos asosiy qirralardan biridir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Adib asarlarining asosiy obraz va qahramonlari, oddiy, kamtar o'zbek xalqi va uning pok, beg'ubor kechinmalaridir. Shoirning lirik qahramoni insoniyat va Yer kurrasining taqdiri, Vatanning buguni va kelajagi to'g'risida kuyib- pishayotgan, qayg'urayotgan, behalovatlik, bezovtalik bilan yashayotgan o'zbek xalqining timsolidir. Vatan va xalqi kelajagi, o'tmishi va buguni bilan yuragi jo'sh urib turgan obrazlar adib she'rlarining asosiy qahramonlaridir.

Sen -zehnini Ulug'bekning "Ziji"ga jolab, xato
Osmonlarda yangi osmon ochgan o'zbeksan,
Sayyoralar yog'dusida idrokin toblab,
Qalb qo'rini bor jahonga sochgan o'zbeksan.

(O'zbek, she'ridan, 1980)

Abdulla Sherning ushbu she'ri tipik an'ananing umumlashma turiga misol bo'ladi. Chunki shoir Ulug'bek obrazi orqali minglab o'zbeklarni beqiyos idroki va qobiliyatini namoyon etadi. Shoir ijodida bunday she'rlar ko'p uchraydi. Jumladan: "Abdullohlar" nomli she'rida Abdulloh ismli yigitlar orqali butun bir o'zbek qahramon yigitlarining yurt himoyasi uchun o'z jonini fido qilganliklarini bayon etadi:

Ular tutdi buyuk ko'ksini
Yurtu iymon himoyasiga.
Hatto tarix boqar o'ksinib
Kechmishlarning hikoyasiga.

("Abdullohlar" she'ridan, 2009)

Abdulla Sher ijodining o'ziga xos jihati va undagi qahramonlar obrazi haqida adabiyotshunos olim V. Zohidov shunday e'tirof etadi: "Abdulla Sher cho'ng sharafli ishni quruq deklaratsiya, baqirish-qichqirish yo'li va vositalar bilan qilmaydi, aksincha, aksaran masalaning nihoyat darajada jiddiy hamda muhim ekanligini ko'zda tutgan holda, konkret faktlarga asoslangan va hayotiy situatsiyalar yaratgan holda amalga oshirishga harakat qiladi, ham o'quvchining nozik didini, emotsiyasini, murakkab hissiyotini hisobga olishga, ham hayot mavjud bo'lgan va she'r bilan tasvirlangan, tipiklashtirilgan qahramonning ichki olamini bosiqlik bilan ochishga intilgan holda bajaradi" [1.425.]

Bu o'rinda olim fikrini ma'qullaymiz. Chunki, Abdulla Sher o'z ijodida lirikaning nozik tomonlarini his qilgan holda, insonlarning yashash tarzini ifodalaydi va hayot to'g'risidagi falsafiy qarashlarini satrlarda aks ettiradi:

Lekin inson "Olam sarvari
Menman!", deya umrin boshlaydi
Va "But bo'lsin dunyoda bari!"

Deb, bir umr chala yashaydi.

(“Odam” she’ridan,2000)

Shoir bir inson obrazi orqali butun insoniyat turmush tarzini, uning ruhiyatini aks ettiradi. Ushbu personaj orqali ijtimoiy hayot qonuniyatlarini anglaymiz va bu obraz turmushdagi real, ijtimoiy, psixologik tip sifatida butun insonlarning ruhiyatini, o’y-fikrini ifodalaydi. Bu obrazda favqulodda ahamiyatga ega bo’lgan, lekin inson mohiyatining asosiy, muayyan, tarixiy xususiyatlari umumlashtiriladi.

Adib yaratgan tipik obrazlar turmush tarzi, kechinmalari, ruhiyati poetik va badiiy vositalar yordamida ifoda etilgan. Shoir inson xarakteri, ona yurtga munosabat, emotsionallikni ifodalovchi ko’plab she’rlar yaratgan. Chin iste’dod sohibi bo’lgan ijodkor o’z qalbi va ruhiyatini lirik tadqiq qilish natijasida ruhiy-ma’naviy iqlimlarni zabt eta boradi va betakror uslubi bilan she’riyatda o’z o’rnini topadi.

“Yozuvchi inson xarakterini aks ettiradi, tipik xarakterlarni tipik sharoitlarda yaratadi, ma’lum davr va sotsial guruh uchun xarakterli bo’lgan voqealarni individuallashtirilgan tipik obrazlar orqali yoritadi”.[2.29]

Tipik an’ananing individual turiga misol ushbu she’rida shoir buyuk yurtdoshiga iftixor, g’urur tuyg’usi bilan birgalikda, beshafqat zamonning qahramonlarga shafaqsiz munosabati aks ettiriladi. “Fayzulla Xo’jayev” ga bag’ishlangan she’rida xiyonat pichog’idan qo’rqmay, haqiqat uchun mardonovar kurashgan va buyuk Turkistonning ertaklariga aylangan qahramon gavalantiriladi:

Qo’rqmagan ko’krakning kuraklari bu,-
Xiyonat pichog’in jim kutib oldi.
Buyuk Turkistonning ertaklari bu,-
Qotgan qon shaklida abadiy qoldi!

(“Fayzulla Xo’jayev”,1980)

She’rda individual shaxsga, ya’ni Fayzulla Xo’jayevga xos qahramonlik, jasorat, elparvarlik fazilatlarini namoyon etiladi. Individual obrazda o’ziga xos bo’lgan fe’l-atvor, gap-so’zlar, betakror xarakter xususiyatlar namoyon bo’ladi.

Shoir tipik an’analarini ifodalashda ayrim kamchiliklarga ham yo’l qo’yadi. Jumladan, adabiyotshunos olim Baxtiyor Nazarov 1985 yilda “Umr asli davr bergan qarz ekan...” maqolasida shoir ijodiga to’xtalib quyidagi fikrlarni bildiradi: “Abdulla Sher qator she’rlarida davr kishisining zamon oldidagi ma’suliyatini mana shunday aniq va konkret ko’rsata olgan. Lekin uning ayrim she’rlaridagi zamondosh qiyofasida, xarakterida mana shu aniqlik yetishmay qoladi. Uning o’rnini hadsiz, kanorasiz umumiylik egallaydi:

Muqaddas yer uzra, osmon ostida
Fasllarni quchib uxlaydi olam
Olamni uyg’otib yashash qasdida
So’ngsiz na’ra bo’lib guldirdir odam.

Bu parchaning dastlabki ikki misrasida osmon ostida muqaddas yer uzra olamning fasllarni quchib uxlaganligi bizga o’zimiz yashayotgan olam va zamin haqida biror konkret tasavvur bera olmagan kabi, so’nggi ikki misradagi olamni uyg’otib yashash qasdida so’ngsiz na’ra bo’lib guldirayotgan odam ham bizda shoir aytmoqchi bo’layotgan odam haqida biror bir konkret tasavvur qoldirmaydi”.[3.130.]

Lekin yillar o’tgan sari shoirning qalami g’oyaviy-falsafiy jihatdan charxlanib, ijtimoiy qarashlari, fikrlari yanada teran bo’lib boradi. Bu esa, albatta, shoir ijodiga ijobiy ta’sirini ko’rsatib, uning she’rlarini mazmundor va yanada ta’sirliroq chiqishiga sabab bo’ladi. “Tanlangan asarlar” (2021) to’plamidan joy olgan yana bir she’rida buni guvohi bo’lamiz:

Kirib kelayotgan karvonda emas,
Ketib borayotgan karvondaman men,
Pastda qolib ketdi yerdagi havas,
Osmonga bosh urgan narvondaman men.

(“Kirib kelayotgan” she’ridan 2010.)

Ushbu satrlar mazmunida mumtoz ohanglar sehriga yo’g’rilgan inson hayotiga, xarakteriga, qalbiga xos murakkab ziddiyatlarga to’la rangin olam manzaralarini ko’ramiz. Ijodkor ko’z o’ngimizda goh donishmand qiyofasida gavalanib, hayot, umr mazmuni haqida falsafiy

mushohadalar yuritadi. Ammo uning dil rozlari oddiy pand-nasihatlar emas, balki turmush qiyinchiliklarini boshidan kechirgan, umr saboqlaridan xulosa chiqargan insonning mulohazalaridir. Tiplarning o'ziga xosligi bevosita shoirning badiiy - estetik ideali natijasida yaratiladi. Shuning uchun ham shoir "Osmonga bosh urgan narvondaman men" deb o'ziga xos badiiy obrazni, ya'ni tipik an'ananing individuallashtirgan qahramonini yaratadi. Har qanday shoir ham bunday haqiqatni Abdulla Sher kabi aytmasligi mumkin. Ammo Abdulla Sher bu haqiqatni o'z tasavvurlari asosida baralla aytgan.

Ijodkor qaysi davrdan yashashidan qat'iy nazar, o'z ijodida davr va zamonga xos qahramonlar obrazini gavdalantiradi. Abdulla Sher hayot haqidagi fikrlarini, undan olgan taassurotlarini o'zi yaratgan obrazlar yashash tarzi, xulq-atfori, o'y-fikrlari, kechinmalari va ruhiyatlariga singdiradi.

"Davriy tashvishiga hamdardlik bilan yashash, ideallarini o'z kurashi va hayot tarzi bilan namoyon qilish Abdulla Sher qahramonlarining yetakchi xususiyatidir". [4.129.]

Adabiyotshunos olim fikrini ta'kidlab, shoir ijodini ko'zdan kechirish barobarida, umrining har bir faslida ijodkor qahramonlari shiddatli zamon va davr bilan hamnafas bo'layotganligining guvohi bo'lamiz. Abdulla Sher ijodidagi an'anaviylik she'rlaridagi milliy ruh va milliylik bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Shoir she'rlarida qalamga olingan mavzular rang-barangdir, unda, asosan, o'zbek xalqining soddadilligi, mehnatkashligi, beg'uborligi o'z ifodasini topgan. Shoir Vatanga bo'lgan cheksiz muhabbati va ehtiromini o'z burchi sifatida qabul qiladi va ijodida ham milliy an'analarimizni yuqori o'ringa qo'yadi.

Abdulla Sher ijodida inson ruhiy holatini ta'sirliroq ochishga, hayot murakkabliklarini, insonlarning o'zaro aloqalarini, turmushdagi turli-tuman ziddiyatlarini badiiy izohlashga, ulardan ko'z yumalikka, ularni to'g'ri tushunib olishga qaratilgan. Bu jarayon, ya'ni hayot hodisalarini psixologik yo'nalishda anglashga, tahlil etishga intilish shoir lirikasida oddiy shakllardan murakkab ko'rinishlar tomon o'sib boradi. Abdulla Sher lirik qahramoni komil inson sifatida bugungi kun kishilarining yashash tarzini ochib berayotgandek.

"Shoir odamning turfa ruhiy holatlarini turli rakurslardan turib tasvirlay biladi. U tasvir obyektiga illatli va fazilatli, yengilgan va yengilmas, bevafo va vafodor, qo'rqqoq va botir singari sifatarga ega shaxslarni oladi. Shoir odamning axloqiy-ma'naviy sifatlariga o'zgarimas bir mavjudlik tarzida qaramaydi, balki ular turli sabablar bilan tinimsiz o'zgarib turishi mumkinligini hamisha yodda tutadi. Inson ma'naviyatidagi bunday evrilishlar tasvirini "Sindirilgan odam" she'ri misolida ko'rishimiz mumkin". [5.636.]

Uni sindirdilar. Axiyri sindi
Qarshilik ko'rsatib, uzoq g'ichirlab.
Kimlardir suyashga uni urindi,
Ko'pchilik achindi unga pichirlab.
(“Sindirilgan odam”she’ridan.1986.)

XULOSA

Tipik an'analar insonshunoslik, obrazlilik, to'qimaning muhimligi, tasvirning tipiklashganligi va so'zning alohida roli badiiy adabiyot spetsifikasining juda muhim momentlariga, formal an'analar tasviriy-ifodaviy vositalari hamda tilning maxsus tasviriy vositalari orqali voqelikdagi hodisalarni va obrazlarning aks ettirilishiga xizmat qiladi. Abdulla Sher lirik qahramoni yangicha kayfiyat, isyonkorona ruh, umr yo'llarida uchraydigan turli quvonchli va qayg'uli onlarni boshidan kechirgan insondir. Ijodkor insonning ana shu kechinmalarini ifodalashda turli tasviriy vositalardan samarali foydalandi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1) Зоҳидов В. Жаҳон адабиёти зарварақлари.–Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1980.– Б. 425.
- 2) Мамедов Б. Тожибоев, М. Адабиёт назарияси. Маърузалар матни – Тошкент: 2005.– Б.29.
- 3) Назаров Б.Ҳаётийлик– безавол мезон. Умр асли давр берган қарз экан.. – Тошкент: Ёш гвардия, 1985.– 130. Б.
- 4) Назаров Б.Ҳаётийлик-безавол мезон.Умр асли давр берган қарз экан – Тошкент: Ёш гвардия, 1985.–Б. 129.
- 5) Йўлдошев Қ. “Сўздан ундирилган лолалар ёки туйғулари қаримас шоир” Абдулла Шернинг “Танланган асарлар” тўпламига сўнгсўз. – Тошкент: Шарқ нашриёти, 2021.– Б. 636-637 .